



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

INGLIZ TILI LEKSIKASIDA TURKIY O'ZLASHMALARNING TRANSFORMATSIYASI

Ibragimova Gulchehra Madaminjonovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Adhamjonov Azizbek Anvarjon o'g'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz tilidagi turkiy o'zlashmalarning (turkizmlarning) leksik-semantik xususiyatlarini, ularning assimilyatsiya jarayonlarini va ma'noviy o'zgarishlarini tahlil etishga bag'ishlangan. Tadqiqot ingliz tilining bu o'zlashmalarni, ayniqsa, madaniy va maishiy sohalarda qabul qilishga naqadar ochiqligini ko'rsatib beradi. Tadqiqot shuningdek, so'zlarning asl madaniy ma'nosini asta-sekin yo'qotib borish xavfi masalasini ham ko'taradi.

Kalit so'zlar: turkiy o'zlashmalar, turkizmlar, ingliz tili, leksik o'zlashish, semantik siljish, semantik kengayish, semantik torayish, metaforik ko'chish, tillar aloqasi, o'zbek tili.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В ЛЕКСИКЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Ибрагимова Гульчехра Мадаминжоновна

Андижанский филиал Кокандского университета

Адамжонов Азизбек Анваржон угли

Андижанский филиал Кокандского университета, магистрант

Аннотация

Данная статья посвящена анализу лексико-семантических особенностей тюркских заимствований (тюркизмов) в английском языке, процессов их ассимиляции и семантических изменений. Исследование показывает, насколько английский язык открыт к восприятию подобных заимствований, особенно в культурно-бытовой сфере. В статье также рассматриваются процессы адаптации тюркских единиц в лексической системе английского языка, сопровождающиеся семантическим расширением, сужением и метафорическим переносом значений. Кроме того, поднимается проблема постепенной утраты словами их первоначального культурного значения.

Ключевые слова: тюркские заимствования, тюркизмы, английский язык, лексическое заимствование, семантический сдвиг, семантическое расширение, семантическое сужение, метафорический перенос, языковые контакты, узбекский язык.

TRANSFORMATION OF TURKIC BORROWINGS IN THE ENGLISH LEXICON

Ibragimova Gulchehra Madaminjonovna

Andijan Branch of Kokand University

Adhamjonov Azizbek Anvarjon o'g'li

Andijan Branch of Kokand University, Master's student

Abstract

This article is devoted to the analysis of the lexical-semantic features of Turkic borrowings (Turkisms) in the English language, their assimilation processes, and semantic transformations. The study demonstrates the openness of the English language to adopting such borrowings, especially in cultural and everyday spheres. The article also examines how Turkic lexical items adapt to the English lexical system through processes such as semantic expansion, semantic narrowing, and metaphorical transfer. In addition, the research highlights the risk of these words gradually losing their original cultural meanings over time.

Keywords: Turkic borrowings, Turkisms, English language, lexical borrowing, semantic shift, semantic expansion, semantic narrowing, metaphorical transfer, language contact, Uzbek language.

Tillar tarixan hech qachon yopiq tizim bo'lmagan. Ular doimo bir-biri bilan muloqotda bo'lib, so'z va tushunchalarni almashib kelgan. Ingliz tili ana shunday ochiq va moslashuvchan tillardan biri sifatida dunyo tillari — lotin, fransuz, arab, fors va turkiy tillardan keng miqyosda so'z o'zlashtirib olgan. Ushbu o'zlashmalar orasida turkiy o'zlashmalar, ya'ni turkizmlar alohida o'rin tutadi: ular nisbatan kam o'rganilgan, ammo ingliz leksikasiga sezilarli hissa qo'shgan guruhni tashkil etadi.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy soʻzlarning maʼnoviy oʻzgarishini tahlil qilish til rivojlanishini, madaniy almashinuvni va tarixiy voqealarning lugʻatga taʼsirini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turkizmlar, xususan, ingliz tilining Usmonli imperiyasi soʻzlarini savdo, adabiyot va mustamlaka aloqalari orqali qanday oʻzlashtirganini koʻrsatuvchi noyob misollar hisoblanadi [1, 18].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidagi turkiy oʻzlashmalarning leksik va semantik xususiyatlarini, ularning assimilyatsiya jarayonlari va semantik oʻzgarishlarini tahlil qilishdan iborat. Bizning yondashuvimiz ingliz va oʻzbek tillaridagi umumiy turkiy leksik merosni qiyoslash orqali har ikki tilning oʻzlashish mexanizmlari va madaniy moslashuv strategiyalarini aniqlashga qaratilgan. Bu esa tilshunoslik nazariyasiga yangi qoʻshimcha kiritadi.

Ingliz tiliga turkiy soʻzlarning kirib kelishi koʻp asrlik va murakkab tarixiy jarayonning mahsulidir. Bu jarayon bir necha asosiy davrlarga boʻlinadi.

1. Salb yurishlari davri (1096–1270)

Turk va Yevropa xalqlari oʻrtasidagi dastlabki jiddiy aloqalar Salb yurishlari davrida yuzaga keldi. Falastin va Suriyada turklar bilan toʻqnashgan yevropaliklar yangi soʻz va tushunchalarni oʻz tillariga olib kira boshladi. Nasrullayev va Rahimovanning taʼkidlashicha, “Saracen” soʻzi dastlab turklarni bildirgan, keyinchalik semantik kengayish natijasida barcha musulmonlarni — arablar, forslar va boshqalarni qamrab olgan umumiy atamaga aylangan [1, 19]. Bu hodisa leksik oʻzlashishda semantik kengayishning klassik namunasidir.

Sobolev oʻz tadqiqotida qayd etganidek, X asrda oʻgʻuz va qipchoq kabi turkiy qabilalar Misr va Suriyaga taʼsirini oʻtkazib, mamluklar davrida qipchoq tili davlat tiliga aylangan [2, 238]. Bu esa turkizmlarning oraliq vositachilar — arab va fors tillari orqali Yevropaga tarqalishiga zamin hozirlagan.

Bizning tahlilimizga koʻra, ushbu davrda turkizmlar “begona” va “ekzotik” tushunchalar sifatida qabul qilingan, shuning uchun ularning aksariyati dastlab salbiy yoki neytral konnotatsiya bilan kirib kelgan. Bu keyinchalik ularning semantik taqdirini belgilab berdi.

2. Savdo va mustamlaka davri (XVI–XIX asrlar)

Keyingi va eng samarali davr XVI–XIX asrlarni qamrab oladi. Bu davrda ingliz savdogarlari Buxoro, Samarqand va Boku kabi Markaziy Osiyo shaharlarini ziyorat qilib, rus tili orqali 60 dan ortiq, hind tillari orqali esa taxminan 40 ta turkiy soʻzni ingliz tiliga olib kirgan [1, 18–19].

1536-yildagi Fransiya–Usmonli shartnomasi tufayli fransuz tili muhim vositachi rolini oʻynadi. Fransuz tili orqali inglizchaga kirgan soʻzlarga “caique” (qayiq) va “turquoise” (feruza toshi) misol boʻla oladi. Nasrullayev va Rahimovanning maʼlumotlariga koʻra, XVI asrning boshida Yevropada Turkiya haqida 900 dan ortiq asar nashr etilgan yevropaliklar orasida “Sharq”qa boʻlgan ulkan qiziqishni koʻrsatadi [1, 19]. Bu qiziqish, bizning nazarimizda, faqat ilmiy emas, balki siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga asoslangan boʻlib, turkizmlarning ingliz tiliga kirishini tezlashtirgan asosiy omil hisoblanadi.

XIX asrda Istanbulda chop etiladigan “The Levant Herald” kabi ingliz tilidagi gazetalar ham turkizmlarning tarqalishiga hissa qoʻshdi. Bu davrda turkizmlar endi nafaqat adabiy asarlarda, balki kundalik matbuotda ham faol ishlatila boshlandi. Bu esa ularning assimilyatsiya darajasini sezilarli oshirdi.

3. Adabiy va diplomatik taʼsir

Koʻplab turkizmlar Usmonli saroyi hashamatini tasvirlovchi adabiy asarlar va diplomatik yozishmalar orqali ham ingliz tiliga kirgan. Newmark taʼkidlaganidek, madaniy va adabiy kontekst orqali kiradigan soʻzlar koʻpincha metaforik va obrazli maʼnolarga ega boʻladi [3, 156].

Shuni taʼkidlash lozimki, Sobolevning fikricha, ingliz tilidagi turkizmlarning koʻpchiligi “sof” turkcha emas, ular arab yoki fors elementlarini oʻz ichiga olgan boʻlib, turkcha vositachilik orqali Yevropaga yetib kelgan [2, 240]. Bizning xulosalarimizga koʻra, bu xususiyat turkizmlarni boshqa oʻzlashmalardan ajratib turuvchi muhim belgi boʻlib, ularning koʻp qatlamli etimologik tarixini aks ettiradi.

Ingliz tilidagi turkiy oʻzlashmalar semantik jihatdan bir necha guruhga boʻlinadi. Nasrullayev va Rahimovanning taxminlariga koʻra, ingliz tilida 400 atrofida turkizm mavjud boʻlib, ularning 55 foizi etnografik, 26 foizi ijtimoiy-siyosiy va 19 foizi tabiiy realliklarga oiddir [1, 19].

Harbiy atamalar

Bu guruhga Usmonli harbiy hayotini aks ettiruvchi soʻzlar kiradi. Masalan, “yataghan” (qilich), “Saracen” (dastlab jangchi, keyinchalik semantik kengayish bilan barcha musulmonlar) va “bashi-bazouk” (tartibsiz askar). “Kourbash” soʻzi esa “kırbaç” (qamchi)dan kelib chiqqan boʻlib, “under the kourbash” iborasi majburlov maʼnosida ishlatilgan.

Harbiy turkizmlar koʻpincha oʻzlarining asl maʼnolarini yaxshi saqlagan, chunki ular aniq maxsus tushunchalarni ifodalagan va ularni almashtirish uchun ingliz tilida ekvivalent soʻzlar mavjud emas edi. Bu

ularning assimilyatsiya jarayonini sekinlashtirgan, ammo ayni vaqtda ularni leksikada mustahkam o'rnatgan.

Savdo va iqtisodiy atamalar

“Bazaar” soʻzi turkcha “pazar”dan olingan boʻlib, bozor maʼnosini bildiradi [2, 245]. “Kiosk” soʻzi esa “köşk” (saroycha yoki pavilon)dan kelib chiqqan. “Para” pul birligi sifatida savdo aloqalari natijasida ingliz tiliga kirgan. Usmonova va boshqalarning taʼkidlashicha, savdo va iqtisodiy atamalar odatda tez assimilyatsiya boʻladi, chunki ular amaliy ehtiyojdan kelib chiqadi [4, 338].

Madaniy va maishiy atamalar

Bu guruh ingliz tilidagi turkizmlarning eng katta va ahamiyatli qismini tashkil etadi. Oziq-ovqat va ichimliklar: “sherbet” (“şerbet”dan), “coffee” (“kahve”dan), “yogurt” (“yoğurt”dan), “pilau” (“palov”dan). Turmush tarzi: “hammam” (“hamom”), “divan” (“divan”). Kiyim-kechak: “turban” (“tülbent”dan).

Ingliz tili harbiy yoki choʻpon atamalarga nisbatan koʻproq madaniy va maishiy turkizmlarni oʻzlashtirib olgan. Buning sababi shuki, Britaniya–Usmonli munosabatlari asosan savdo, adabiyot va mustamlaka boshqaruvi doirasida rivojlangan; Bolqon mintaqasidagi umumiy qishloq va koʻchmanchi turmush tarzi bilan bogʻliq aloqa esa inglizlarda unchalik kuchli boʻlmagan [2, 246].

Maʼmuriy va ijtimoiy atamalar

Unvon va lavozimlar: “bey” (bek, lord), “pasha” (yuqori mansabdor), “shah” (shoh), “sheik” (shayx). Bu soʻzlar aksariyat hollarda ingliz matnlarida oʻz asl maʼnolarini saqlab qolgan, chunki ular aniq ijtimoiy va siyosiy tushunchalarni ifodalagan.

Schäffnerning kognitiv yondashuviga asosan, ijtimoiy iyerarxiyani ifodalovchi soʻzlar metaforik koʻchishga kam moyil boʻladi, chunki ular aniq institutlarga bogʻlangan [5, 1258]. Bizning tadqiqotimiz ham bu xulosani tasdiqlaydi: “pasha”, “bey” kabi soʻzlar ingliz tilida semantik oʻzgarishlarga deyarli duchor boʻlmagan.

Tabiiy realliklar va boshqalar

“Caïque” (qayiq turi), “pillow” (yosti; fors orqali, ammo turkiy vositachilik bilan). Koʻplab soʻzlar aralash xarakterga ega: masalan, “Turkey red” (boʻyoq turi).

SEMANTIK ASSIMILYATSIYA VA OʻZGARISHLAR

Ushbu boʻlim tadqiqotning asosiy ilmiy qismini tashkil etadi. Turkizmlar ingliz tiliga kirgach, bir necha semantik oʻzgarish jarayonlaridan oʻtgan. Wierzbickaning madaniyatlararo semantika nazariyasiga koʻra, soʻz yangi madaniy kontekstga kirganda, uning maʼnosi oʻsha kontekstdagi konseptual tizimga moslashadi [6, 89].

1. Semantik kengayish

Semantik kengayish soʻz maʼnosining dastlabki tor chegaradan kengayib, yangi va kengroq tushunchalarni qamrab olishidir.

“Kiosk” turkcha “köşk” (saroy paviloni yoki bogʻdagi yopiq joy)dan olingan; fransuz tili orqali inglizchaga kirgan [2, 250]. Ingliz tilida dastlab bogʻ inshootini bildirgan, keyinchalik XIX–XX asrlar shahar hayotining rivojlanishi bilan gazeta doʻkonchasi, telefon kabinasi va hatto elektron xizmat koʻrsatish nuqtasi maʼnosida ishlatila boshlagan.

Bizning tahlilimizcha, semantik kengayish shahar madaniyatining rivojlanishini bevosita aks ettirmoqda. Bu Sobolev tasvirlagan Bolqon holatidan farq qiladi: u yerda “köşk” soʻzi koʻproq qishloq va mamlakat uyi maʼnosini saqlab qolgan [2, 251]. Ingliz tilida esa shaharlanish jarayoni soʻzni tor arxitektura atamasi boʻlmay, funksional nomga aylantirdi, yaʼni muhim boʻlgan narsa binoning shakli emas, balki uning vazifasi — xizmat koʻrsatish nuqtasi edi. Bu ingliz madaniyatidagi funksionalizm tamoyilini aks ettiradi.

“Horde” moʻgʻul-turkcha “ordu” (lager yoki qoʻshin)dan olingan. Usmonova va boshqalarning taʼkidlashicha, dastlab qabila yoki koʻchmanchi guruhni bildirgan, keyinchalik tartibsiz va xavfli olomon maʼnosini kasb etgan [4, 339]. Bu salbiy maʼno siljishining tipik namunasidir: soʻz yangi madaniyatga kirganda koʻpincha mensimaslik yoki qoʻrquv bilan bogʻliq maʼno oladi.

“Horde”ning semantik evolyutsiyasi yevropaliklarning moʻgʻul-turk bosqinlari haqidagi tarixiy xotirasi va stereotiplari bilan chambarchas bogʻlangan. Soʻz sof leksik birlik emas, balki madaniy xotira tashuvchisi vazifasini bajaradi.

2. Semantik torayish

Semantik torayish soʻz maʼnosining kengdan torga qarab oʻzgarishidir. “Turban” turkcha “tülbent”dan olingan. Dastlab har qanday mato yoki duxoba matosini bildirgan; keyinchalik faqat bosh

kiyim turini ifodalagan. Newmarkning tarjima nazariyasiga asosan, madaniy xususiyatga ega bo'lgan kiyim-kechak atamaları ko'pincha tor ma'no oladi, chunki ular aniq vizual obrazga ega bo'ladi [3, 178].

Ushbu semantik torayish ko'pincha so'zning madaniy markerga aylanishi bilan bog'langan: "turban" ingliz tilida faqat kiyim turi emas, balki "sharqonalik" belgisi sifatida qabul qilingan.

3. Metaforik ko'chish

"Divan" metaforik ko'chishning eng yorqin namunasidir. Bu so'z Usmonli saroyi va hukumat majlislari kengashi ma'nosida ishlatilgan ("devonxona" tushunchasiga yaqin). Ingliz tiliga kirgach, majlislar o'tkaziladigan past o'rindiqlar divanlarga o'xshagani uchun "divan" yumshoq o'rindiq yoki kreslo ma'nosida qo'llana boshlagan.

Schäffnerning metafora va kognitiv til nazariyasiga ko'ra, metaforik ko'chish har doim madaniy konseptual aloqalarga asoslangan [5, 1260]. Bizning tahlilimiz esa shuni ko'rsatadiki, "divan"ning metaforik ko'chishi Usmonli saroyi hayoti haqidagi tasavvur va xayolot natijasida yuzaga kelgan: inglizlar haqiqiy devon majlislarini ko'rmaganlar, balki tasvirlar va hikoyalar asosida tasavvur qilganlar. Bu tasavvurda diqqat markazida kengash emas, balki hashamatli o'rindiqlar turgan.

O'zbek tilida "devon" so'zi hozir ham ikki ma'noda — she'riy to'plam va saroy devoni ma'nosida ishlatiladi. Bu ingliz tilidagi "divan"ning mebel ma'nosiga nisbatan turkiy asl ma'nosini ko'proq saqlab qolganini ko'rsatadi.

4. Assimilyatsiya darajasi

Turkizmlarni assimilyatsiya darajasiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

To'liq assimilyatsiya: "coffee", "yogurt", "turban". Bu so'zlar ingliz tilida boshqa so'zlardan ajratib bo'lmaydigan darajada moslashgan va ularning chet el so'zi ekanligini biladigan kishilar soni juda kam. Usmonova va boshqalarning ta'kidlashicha, to'liq assimilyatsiya so'zning fonetik, grafik va semantik jihatdan butunlay moslashishini anglatadi [4, 338].

Qisman assimilyatsiya: "imam", "bazaar", "divan". Bu so'zlar ingliz tilida ishlatiladi, ammo ulardagi madaniy xususiyat hali ham seziladi. Ular ko'pincha "Sharq" tushunchalari bilan bog'liq madaniy konnotatsiyaga ega.

Assimilyatsiya bo'lmagan: "yataghan", "bashi-bazouk". Bu so'zlar faqat maxsus, terminologik yoki tarixiy kontekstda uchraydi.

Usmonova va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, to'liq ma'noviy assimilyatsiya odatda so'z tilga kirgandan keyin 50–100 yil ichida yuz beradi [4, 339]. Bizning kuzatishlarimiz esa shuni ko'rsatadiki, bu muddat so'zning foydalanish chastotasi va madaniy ahamiyatiga bog'liq: "coffee" 50 yilda to'liq assimilyatsiya bo'lgan, "yataghan" esa 200 yildan keyin ham begona so'z bo'lib qolgan.

Ushbu qiyosiy bo'lim maqolaning ilmiy yangiligini tashkil etadi. O'zbek tili turkiy til oilasiga mansub bo'lganligi sababli, u ko'plab so'zlarni bevosita o'zlashtirib olgan. Ingliz tili esa ularni vositachilar orqali va ko'pincha o'zgartirilgan shaklda qabul qilgan.

So'z (asl turkiy)	Inglizcha shakli	Ma'nosi	O'zbekcha shakli	Ma'nosi
kahve	coffee	qahva (ichimlik)	qahva	qahva (ichimlik)
köşk	kiosk	do'koncha, kabina	ko'shk	hashamatli uy
yoğurt	yogurt	ivutilgan sut mahsuloti	yogurt	ivutilgan sut mahsuloti
pazar	bazaar	bozor	bozor	bozor
divan	divan	kresloli o'rindiq	devon	she'riy to'plam; saroy devoni
ordu	horde	tartibsiz olomon	o'rdu	qo'shin, lager
şerbet	sherbet	sharbat, muzqaymoq	sharbat	sharbat (ichimlik)

Jadval tahlili bizga quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, o'zbek tili aksariyat hollarda so'zning asl turkiy ma'nosini yaxshiroq saqlab qolgan. Bu til-genetik yaqinlik va madaniy uzluksizlik natijasidir. Ingliz tili esa so'zlarni o'zining madaniy va ijtimoiy kontekstiga moslab, ma'noni ko'pincha yo kengaytirgan, yo toraytirgan, yo metaforik jihatdan o'zgartirgan.

Ikkinchidan, ingliz tilidagi turkizmlar ko'proq "ekzotik Sharq" obraziga bog'langan semantik konnotatsiyaga ega. Masalan, "bazaar" so'zi ingliz tilida nafaqat bozor, balki shovqinli va betartib savdo joyi ma'nosini ham bildiradi; o'zbek tilida esa "bozor" neytral atama hisoblanadi.

Uchinchidan, o'zbek tilidagi turkizmlar kundalik, oddiy va tabiiy; ingliz tilidagi turkizmlar esa madaniy marker va adabiy elementga aylangan. Bu farq, bizning nazarimizda, ingliz tilining leksik moslashuvchanligi va "ekzotik" tushunchalarga bo'lgan qiziqishi bilan izohlanadi.

Wierzbickaning madaniyatlararo semantika konsepsiyasiga asosan, so'z ma'nosi til ichidagi madaniy konseptual tizimga bog'liq [6, 102]. Bizning qiyosiy tahlilimiz bu nazariyani to'liq tasdiqlaydi: bir xil turkiy ildizga ega so'zlar ingliz va o'zbek tillarida turli madaniy konsepsiyalarni ifodalamoqda.

Hozirgi raqamli va ijtimoiy tarmoqlar davri turkizmlarning taqdirini yangi muammo va imkoniyatlar bilan to'ldirib bormoqda. Bir tomondan, internet va global madaniyat almashinuvi "coffee", "yogurt", "bazaar" kabi so'zlarni yanada keng tarqatmoqda. Boshqa tomondan, bu so'zlar o'zlarining asl madaniy ma'nosini tezroq yo'qotib bormoqda.

Masalan, "bazaar" so'zi hozir onlayn savdo platformalarida ishlatilmoqda — bu uning asl "Sharq bozori" ma'nosidan butunlay uzoqlashib ketganini ko'rsatadi. Bizning kuzatishimizcha, raqamli til (*digital language*) kontekstida so'zlar "umumlashtirilgan" ma'noga ega bo'lishga moyil, ya'ni madaniy xususiyatlar yo'qolib, faqat funksional ma'no saqlanib qoladi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun qiziqarli savol shuki, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli aloqa turkizmlarning ma'noviy o'zgarishini tarixga nisbatan tezlashtiryaptimi? Bizning dastlabki taxminlarimizga ko'ra, raqamli davrda semantik o'zgarishlar 5–10 yilda sodir bo'lmoqda. Bu tarixiy 50–100 yillik sikl bilan solishtirganda juda tezdir.

Bundan tashqari, o'zbek tilidagi turkizmlarning raqamli makon orqali ingliz tiliga yangi to'liqda ta'sir ko'rsatishi ham o'rganishga loyiq hodisadir. Global internet madaniyatida o'zbek va boshqa Markaziy Osiyo tillaridan keladigan so'zlar, masalan, "plov", "samsa", yangi shakl va ma'nolarda ingliz tiliga kirib bormoqda. Bu jarayon klassik turkizmlar tarixidan farq qiladi: u bevosita, tez va ko'p yo'nalishlidir.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi turkiy o'zlashmalarning leksik va semantik jihatdan qanday assimilyatsiya qilinganini kompleks tahlil qildi. Salb yurishlaridan tortib mustamlaka davrigacha bo'lgan tarixiy jarayon ingliz tiliga "coffee", "kiosk", "divan", "horde", "yogurt", "bazaar" kabi so'zlarni olib kirdi va bu so'zlar ingliz tilida chuqur ildiz otib, o'ziga xos semantik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Turkizmlarning ingliz tiliga kirishi tarixiy-madaniy aloqalar natijasi bo'lib, bu aloqalar asosan savdo, adabiyot va mustamlaka boshqaruvi doirasida amalga oshgan. Bu esa turkizmlarning aksariyati madaniy va maishiy sohalarga taalluqli ekanligini tushuntiradi. Turkizmlar ingliz tilida uch asosiy semantik o'zgarish jarayonidan o'tgan: semantik kengayish (masalan, "kiosk"), semantik torayish (masalan, "turban") va metaforik ko'chish (masalan, "divan"). Har bir jarayon ingliz madaniyatining o'ziga xos konseptual tizimini aks ettiradi.

Bundan tashqari, o'zbek tili bilan qiyosiy tahlil ko'rsatdiki, ikkala til umumiy turkiy leksik merosni turlicha o'zlashtirib olgan: o'zbek tili asl ma'nolarni ko'proq saqlab qolgan, ingliz tili esa so'zlarni madaniy va ijtimoiy kontekstiga moslab o'zgartirgan. Bu farq tillarning genetik yaqinligi va madaniy aloqalar xarakterini aks ettiradi.

Tadqiqot ingliz tilining leksik jihatdan ochiqqligini va xorijiy so'zlarni o'zlashtirishdagi noyob moslashuvchanligini tasdiqlaydi. Bu esa tillararo va madaniyatlararo tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nasrullayev J.R., Rahimova Z.S. Turkizmlar ingliz tilida // Yevroosiyo ilmiy jurnali. — 2020. — № 18. — B. 18–25.
2. Sobolev A.N. Balkan tillar uyushmasida o'zlashmalarning ahamiyati haqida // Tilshunoslik tadqiqotlari. — 2019. — № 12. — B. 234–265.
3. Newmark P. Tarjima darsligi. — Nyu-York: Prentice Hall, 1988. — 292 b.
4. Usmonova G.A., Isroilova S.B., O'rinboyeva D.I. Tilda o'zlashgan so'zlarning assimilyatsiyasi // Iqtisodiyot va jamiyat. — 2021. — № 3 (82). — B. 337–340.
5. Schäffner C. Metafora va tarjima: kognitiv yondashuvning ba'zi masalalari // Journal of Pragmatics. — 2004. — Vol. 36. — Iss. 7. — P. 1253–1274.
6. Wierzbicka A. Madaniyatlararo pragmatika: inson muloqotining semantikasi. — Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. — 502 b.